



e-ISSN:2582-7219



# INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH IN SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY

Volume 5, Issue 9, September 2022



INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INDIA

Impact Factor: 7.54



6381 907 438



6381 907 438



ijmrset@gmail.com



www.ijmrset.com



# The Role of Inclusive Education Development in the Republic of Uzbekistan

**Qurbanova Makhtuma Fazliddinovna<sup>1</sup>**

Tashkent Region National Center for Training Teachers in New Methodologies,  
Senior lecturer of the "Preschool, elementary and special education methodology" department.  
Republic of Uzbekistan<sup>1</sup>

**ABSTRACT:** In the article, the attention paid to inclusive education as a result of reforms in the field of education, a number of problems related to inclusive education, the involvement of disabled children in the educational process, in general Adaptation of schools to this process and the systematic work being carried out for the quality education of children with disabilities in the conditions of Uzbekistan. In addition, opinions, conclusions and recommendations were given about the goals and objectives of the development of inclusive education in the elimination of some problems arising in this field.

**KEYWORDS:** disability, social integration, rights of a disabled child, concept of development, children with special needs, inclusive education, resource teacher, individual programs, special education.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING O'RNI

**Qurbanova Maxtuma Fazliddinovna<sup>1</sup>**

"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi.  
Toshkent viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi.<sup>1</sup>  
O'zbekiston Respublikasi.

**Annotatsiya:** Maqolada ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida inklyuziv ta'limga berilayotgan e'tibor, inklyuziv ta'lim bilan bog'liq qator muammolar, alohida ta'limga muhtoj – nogiron bolalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilish, umumta'lim maktablarini mazkur jarayonga moslashtirish hamda O'zbekiston sharoitida nogironligi bo'lgan bolalarning sifatli ta'lim olishlari uchun olib borilayotgan tizimli ishlar haqida bayon etilgan. Shuningdek, mazkur sohada yuzaga kelayotgan ayrim muammolarni bartaraf etishda – inklyuziv ta'limni rivojlantirishning maqsad va vazifalari haqida fikr, xulosa va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** nogironlik, ijtimoiy integratsiya, nogiron bola huquqlari, rivojlanish konsepsiyasi, maxsus ehtiyojli bolalar, inklyuziv ta'lim, resurs o'qituvchi, individual dasturlar, maxsus ta'lim.

Jamiyatda insonlar orasida nogiron bolalar haqida bilimlarning yetishmasligi oqibatida maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bundan tashqari, nogiron bolaning qobiliyatlari, huquqlari va ehtiyojlari muntazam ravishda qadrlanmasa, bolalarda o'ziga va qobiliyatlariga nisbatan salbiy munosabat shakllanib boradi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib orilayotgan islohotlar natijasida inklyuziv ta'limga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada hukumat miqyosida bir necha qaror va farmoyishlar qabul qilindi. Chunki aholi orasida yaxshi eshita olmaydigan, ko'zi ojiz, ruhiy hasta yoki ma'lum bir falokat oqibatida mayib-majruh bo'lib qolgan bolalar ham borki, ular ham ilm olish huquqiga egadirla

O'zbekistonda umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim joriy etish reja qilinmoqda. Keyingi o'quv yilida alohida ta'lim ehtiyoji bor bolalarning 24 foizi, 2025 yilgacha esa 40 foizi odatiy maktablarga jalb qilinishi kutilmoqda. Inklyuziv ta'lim bilan bog'liq qator muammolar va xavotirlar ham mavjud

Hozirgi kunda ko'pchilik inklyuziv ta'lim tushunchasini nogironligi bor bolalarning sog'lom bolalar bilan bir maktabda, bir sinfda o'qishi, bir partada o'tirishi deb tushunadi xolos. Aslida, esa inklyuziv ta'lim - barcha bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi. Inklyuziv ta'lim nogiron bolalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda umumta'lim maktablarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko'zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir.



Demak, nogiron bolalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilishda ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlagan holda umumta'lim maktablarini nogiron bolalarga moslashtirish talab etiladi. O'zbekistonda turli xil nogironligi bo'lgan bolalar inklyuziv (uyg'unlashgan) sharoitda sifatli ta'lim olishlari va keyinchalik munosib ish o'rinlari bilan ta'minlanishlari uchun tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;
- jamoatchilik o'rtasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish;
- o'quvchilarning jismoniy va aqliy talab-ehtiyojidan va ta'lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini optimallashtirish;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi vazifalar belgilangan.



Mazkur konsepsiya asosida umumiy ta'lim muassasalarida alohida ta'limga muhtoj bolalarni inklyuziv o'qitish to'g'risidagi nizom tasdiqlangan bo'lib, u quyidagilarni nazarda tutadi:

- inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari;
- maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tuzatish sinflarini tashkil etish tartibi va alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun o'quv jarayoni;
- bolalarni inklyuziv ta'lim va boshlang'ich asosiy tuzatish sinflariga qabul qilish tartibi;
- inklyuziv ta'lim va boshlang'ich asosiy tuzatish sinflarida ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar

Inklyuziv ta'limning bosh g'oyasini quyidagi strategiya tashkil etadi:

“Zamonaviy maktabda bola ta'limga emas, ta'lim bola imkoniyatlariga moslashtiriladi”. Umumta'lim maktablarida maxsus nogironlar yo'lakhasining bo'lishi, faqat birinchi qavatlarda o'qitilishi, ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun Brayl alifbosida ishlangan jihozlar, eshitish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun dars mashg'ulotlari vaqtida imo-ishora tilida tarjima bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun umumta'lim maktablari o'quv xonasi Brayl alifbosida ishlangan jihozlar bilan jihozlangan bo'lmasa, o'quvchilar shaxsiy yordamchi xizmatlariga muhtoj bo'lishadi. Agar umumta'lim maktablari davlat tomonidan imoishora tili tarjimoni ijtimoiy xizmati ta'minlanmasa eshitish qobiliyati cheklangan o'quvchilar o'zlari maxsus surdo tarjimonlarni ishga solishlari kerak bo'ladi.

Inklyuziv ta'lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o'zlari xohlagan maktabda o'qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi. Bolaning nogiron bo'lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo'l qo'yilgan xatolar sababchi bo'lgan. Demak, ularning o'qishi uchun ham shu jamiyatning o'zi jon kuydirishi shart.

Zamonaviy fan va amaliyotda sog'lom bolalar va nogiron bolalarni birgalikda o'qitish va tarbiyalashdagi pedagogik jarayonni belgilash va tavsiflash uchun integratsiya, asosiy oqim, inklyuziya kabi atamalar qo'llaniladi. "Integratsiya" atamasi lotincha "integrare" – to'ldirish so'zidan kelib chiqqan.

Pedagogikada "ijtimoiy integratsiya" atamasi XX asrda paydo bo'lgan. va dastlab AQShda XX asrning 60-yillaridan boshlab irqiy, etnik ozchiliklar muammolariga nisbatan ishlatilgan. Bu atama Yevropada nutq aylanishiga kirdi va nogironlar muammolari kontekstida qo'llanila boshlandi



XXI asr boshlariga kelib, keng ijtimoiy-falsafiy ma'noda xorijda integratsiya mavjudlik, birgalikda yashash shakli sifatida tushuniladi. Oddiy odamlar va nogironlar, bu alohida ehtiyojli shaxsning barcha ijtimoiy jarayonlarda, ta'limning barcha darajalarida, dam olish jarayonida, ishda, turli ijtimoiy rol va vazifalarni amalga oshirishda cheksiz ishtirokini amalga oshirishni ta'minlaydi. Shuningdek, bu huquq dunyoning aksariyat rivojlangan mamlakatlarida qonuniy ravishda mustahkamlangan.

Xorijiy pedagogika integratsiyani oddiy bolalar va nogiron bolalarni birgalikda yashash va bu jarayonni iqtisodiy, tashkiliy, didaktik va uslubiy xarakterdagi choratadbirlar bilan qo'llab-quvvatlash va hamrohlik qilish bilan o'qitish imkoniyati deb biladi.

Alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarga asoslangan inklyuziv ta'lim jamiyatga ham foydalidir. Bu esa o'z navbatida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani oddiy bog'cha yoki maktabga joylashtirish integratsiya yo'lidagi birinchi qadamdir. Integratsiyalashgan jamiyatda barcha teng huquqqa ega, bu yaxlit jamiyatdir. Inklyuziv ta'lim tufayli jamiyat integratsiyalashgan jamiyatga aylanadi va barcha bolalar uchun foydali bo'lgan samarali pedagogika tamoyillarini targ'ib etadi. Insonlarning turli xilda bo'lishi normal holat, deb qabul qilingan va o'rganish jarayonining tabiati va bosqichlaridan kelib chiqib, bola mazkur jarayon talablariga emas, balki ushbu jarayon bola talablariga moslashtirilishi lozim.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi ya'ni, resurs o'qituvchi faoliyatini talab etadi. Inklyuziv ta'lim amaliyotda maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi va oddiy o'qituvchisining hamjihatlikdagi harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ba'zi sinflarda bolani ma'lum bir vaqtga sinfdan ajratib olish kerak bo'lishi mumkin. Hamma vaqt nima bo'lsada resurs o'qituvchi sinf o'qituvchisi bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishi va bu maxsus ta'lim sohasida mutaxassislikka ega bo'lishi talab qilinadi. Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchining muhim vazifalariga



nogiron bolalar uchun kerak bo'lgan qo'llanmalar, jihozlar bilan ta'minlash, homiylar topish, ota-onalarni maktabga yordam berishga jalb qilish va imkoniyati cheklangan bolalar, sog'lom bolalar hamda sinf o'qituvchisi o'rtasidagi mustahkam aloqani o'rnatish, masus resurs qo'llanmalarni ta'minlash orqali yordam berish, ota-onalar, bolalar oddiy sinf o'qituvchilari va maktab ma'muriyatiga maslahatlar berish, shuningdek maxsus ta'limga muhtoj bolalar uchun faoliyatlar va ularga mos keluvchi ta'lim dasturlari haqida muhokamalar yuritish, hattoki nogiron bo'lmagan bolalarning ota-onalariga ham ma'lumotlar yetkazilib turish kiradi.

Resurs o'qituvchining asosiy maqsadi:

- har bir o'quvchini qaysi darajadagi yordamga muhtojligini aniqlash va ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muntazam ravishda ular bilan uchrashish;
- o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash;
- individual rejalardan kelib chiqqan holda ularni kuzatish, o'quv dasturiga moslashishiga yordam berish;
- o'qitish va baholab borish;
- sinf o'qituvchilariga o'quvchilarning maxsus ehtiyojlari va qobiliyatlariga oid ma'lumotlarni berish;
- sinf o'qituvchilarini individual o'quv rejalari bilan tanishtirish va ular bo'yicha maslahatlar berish;
- muntazam ravishda o'quvchilarning erishayotgan muvaffaqiyatlarini muhokama qilish va baholash;
- maktab jamoasining boshqaruv xodimlari va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash;
- zarurat tug'ilsa, o'quvchilarni boshqa yordam ko'rsatuvchi uyushmalarga taklif etish (masalan, seminarlarga, shifokorlarga).
- o'qituvchilar hamda o'quvchilar bilan individual ravishda olib boriladigan faoliyatlarni qayd etib borish;
- standart o'quv reja talablariga javob bermaydigan vaziyatlarda har bir o'quvchiga individual o'quv reja tuzishga ko'maklashish;
- o'zgaruvchan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda individual o'quv rejalarni yangilash va baholash;
- mavjud barcha resurslar (o'quv adabiyotlar, o'qitish qurilmalari va boshqa asboblarni hujjatlashtirish va ular ro'yhatini tuzish).

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchi o'z vazifa va maqsadlaridan kelib chiqqan holda ish rejasini o'zi tuzishda quyidagilarni hisobga olishi kerak:

- maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchilarning maxsus ta'lim olishga bo'lgan talablariga javob beradigan yordamlarni ko'rsatish;
- sinf o'qituvchisi bilan birgalikda individual dasturlarni yaratish va uni baholash;
- o'qituvchilar muhtoj bo'lgan xizmatlarni amalga oshirish;
- bolaning o'qituvchisi yoki maktabi almashganda u haqidagi ma'lumotlarni yetkazib berishni boshqarish;
- yangi kelgan o'qituvchilarning ehtiyojlarini anglash va qondirish;
- maxsus ta'limga muhtoj bo'lgan oddiy sinflarga o'qituvchilarning moslashishiga yordam berish;
- agar kerak bo'lsa sinfdan tashqarida individual va guruhlariga asoslangan ko' individual dasturlarni muvaffaqiyatli ko'rsatmalarni berish; 'lishini boshqarish;
- maxsus ta'limga muhtoj bolalarni maktabning jismoniy muhitiga jalb etishda ularning shu muhitga moslashishiga yordam beruvchi maktab boshqaruvi;
- maxsus yordamchi vositalar va qo'llanmalarga bo'lgan talabni o'rganish va ulardan foydalanishni boshqarish.





Ta'lim olishda qiyinchiligi bo'lgan bolalarni imkoniyatini ta'lim siyosatida e'tiborga olish juda muhim. Ta'lim siyosati inklyuziv ta'limni rivojlantirish maqsadida moliyaviy ta'minotga e'tibor qaratish zarur:

- maxsus ta'lim va umumta'lim maktablari o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari;
- statistik ma'lumotlar bo'yicha nogironlarni inklyuziv maktablarda ta'lim olishni joriy qilish;
- maxsus infrastrukturalar, masalalar, texnik vositalardan foydalanishga imkoniyat yaratish ham ta'lim siyosatining ajralmas qismidir.

Ushbu ta'lim tizimida bolalarni nuqsonlarini aniqlash ularni muolaja – reabilitatsiya qilish, korreksion-pedagogik omillarni amalga oshirish bo'yicha tegishli mutaxassislar (maxsus resurs pedagoglar, psixologlar, tibbiyot xodimlari, ota-onalar va boshqalar) muntazam ravishda maktab pedagoglariga bevosita yordam berishlari talab etiladi.

Inklyuziv ta'limning asosiy qismi – bolalarga bilim olish uchun do'stona munosabat va o'qishga imkon beruvchi muhitni yaratish lozim. Bolalar maktabga bexatar, qiyinchiliklarsiz yetib borish imkoniga ega bo'lishlari lozim. Bundan tashqari, amaldagi umumta'lim uslubiyatiga bolani moslashtirishdan ko'ra, dars jadvalini sharoitni, uslubiyotni va o'quv qurollarini o'zgartirish kerak bo'ladi.

Bunday o'zgartirishlar nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar, balki normal rivojlanishdagi bolalar uchun ham ta'lim sifatini yaxshilaydi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni. QHMMB: 06/19/5712/3034-son.
2. "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizom. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638- son qaroriga 1-ilova
4. Кристин Майлз. Канада. Жамиятдаги ногирон одамларни ўқитиш. Мактаб ўқитувчиларига қўлланма, 1991.
5. Муминова Л.Р., Аюпова М.Ю. Логопедия. Т., 1995
6. Выготский Л.С. Дефект и сверхкомпенсация. // «Проблема дефектологии». Москва, 1996.
7. Туре Йонссон. Инклюзив таълим (Ўқитувчилар учун методик қўлланма). ЮНЕСКО халқаро ташкилоти «Оперейшен Мерси» Халқаро Ташкилоти, Республика таълим маркази. Тошкент, 2003.
8. Рой Марк Конки "Инклюзив синфларда ўқувчилар эҳтиёжларини англаш ва бу эҳтиёжларни қондириш" Тошкент-ЮНЕСКО-2004 йил. Ўқитувчилар учун қўлланма.
9. Файзиева У., Назарова Д., Колбаева Х.Ж. "Эшитишида муаммолари бўлган болалар инклюзив таълими". ЎХТВ Авлониё номидаги ХТРХМОМИ, БМТ.2005.
10. Нишонова З., Алимова Г. Болалар психологияси ва уни ўқитиш методикаси. – Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. -44-б.
11. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов. – М.: «Владос», 2013.



**INNO SPACE**  
SJIF Scientific Journal Impact Factor  
Impact Factor  
7.54

**ISSN**

INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INDIA



# INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH IN SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY

| Mobile No: +91-6381907438 | Whatsapp: +91-6381907438 | [ijmrset@gmail.com](mailto:ijmrset@gmail.com) |

[www.ijmrset.com](http://www.ijmrset.com)